



Bank kafolatlari

Yangilangan sana: Chr, Iyun, 13, 2018

Bank kafolatlari — xavf-xatarlarni boshqarishning universal vositasi

Bank kafolati, bank o'z kafolatini bergan tomon tarafidan kontrakt shartlari bajarilmagan holda, bankning ma'lum pul mablag'larini to'lashning chaqirib olinmaydigan majburiyatidir.

Biz Sizga kafolatlarning bir necha turlarini taklif qilamiz:

- To'lov kafolati (Payment Guarantee) sotuvchiga kontraktida ko'zda tutilgan to'lov majburiyatlarining xaridor tomonidan bajarilishini kafolatlash uchun ishlatiladi.
- Majburiyatlar bajarilishining kafolati (Performance Bond) xaridor va sotuvchi o'rtasida shartnomaviy munosabatlarni mustahkamlash uchun xizmat qiladi. U tovarni yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatish shartlari kontraktida belgilangan shartlar asosida bajarilmagan holda xaridorga belgilangan summaning to'lanishini kafolatlaydi.
- Avans to'lovining kafolati (Advance payment bond) kontraktida sotuvchi foydasiga avans to'lovi ko'zda tutilganda ishlatiladi, va sotuvchi tovarlarni yetkazib berish yoki xizmatlarni ko'rsatish majburiyatlarini bajarmaganida xaridorga avans to'lovi qaytarilishini ta'minlaydi.

Bank kafolatining ishlash tamoyili.

Kafolatlarni berish xizmatlaridan tashqari, bank quyidagilarni amalga oshiradi:

- Kafolatlarni avizo qilish;
- Banklar tomonidan mijozlarning foydasiga chiqarilgan kafolatlarning haqiqiylikini tasdiqlash.



Bank – emitent Avizo qiluvchi bank Applikant Oluvchi

1. Shartnoma
 2. Kafolatni berish yuzasidan buyurtma
 3. SWIFT bo'yicha kafolatni berish
 - 3.1. Kafolatni qog'ozda bevosita berish
 4. Kafolatni avizo qilish
 5. Tovarni yuborish
 6. To'lov
-